

TASDIQLAYMAN

“UMS” MCHJ Bosh direktori

S.X. Aripov

2023-yil “15” 12



## «UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS» MCHJ MONOPOLIYAGA QARSHI KOMPLAYENS XAQIDAGI 2023-YIL HISOBOTI

1. O‘zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligiga kiritilayotgan o‘zgartirishlar yuzasidan tizimli monitoring qilinib borildi.

1.1. Ushbu yilning 03.07.2023-sanasida qabul qilingan yangi tahrirdagi “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuni talablarini xodimlarga yetkazish maqsadida “UMS” MCHJ faoliyatida davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida monopoliyaga qarshi kurashish qonunchiligi va lokal hujjatlar talablariga amal qilish” mavzusida o‘quv-materiallari tayyorlandi va xodimlar ishtirokida seminarlar o‘tkazildi.

1.2. Shuningdek “Reklama to‘g‘risida”gi Qonun talablari bilan xodimlarni tanishtirish maqsadida ham “UMS” MCHJ marketing sohasida faoliyat yuritishda reklama to‘g‘risidagi qonunchilik talablari hamda local hujjatlarga amala qilish” mavzusida o‘quv-materiallari tayyorlangan bo‘lib, dekabr oyining 20 sanasida xodimlar ishtirokida seminar tashkil etilishi rejlashtirilgan.

1.3. Komplayens bo‘limi tomonidan Monopoliyaga qarshi kurashish va komplayens sohasida qonunchilikka kiritiyotgan o‘zgarishlar yuzasidan, kompaniya xodimlari huquqiy savodxonlikni oshirish uchun muntazam ravishda eslatma materiallari tayyorlab borilmoqda va xodimlarga yangiliklar yetkazilmoqda.

2. Kompaniyaning monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzilishi xavfi mavjud bo‘lgan funksiyalarini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligining buzilishi xavfini kamaytirish bo‘yicha 2023-yil uchun Yo‘l xaritasi ishlab chiqilgan va Bosh direktorning 2023 yil 3 fevraldagi 01/0222-II sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

3. Kompaniya faoliyatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligining talablariga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha bajarilgan ishlar:

3.1. O‘zbekiston Respublikasining davlat xaridlari sohasidagi qonunchiligi talablariga rioya etilishini ta‘minlash va xaridlarni amalga oshirish faoliyatida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida komplayens xizmati tomonidan xaridlar ishtirokchilari va xarid komissiyasi a‘zolari orasida qarindoshchlik va boshqa aloqalar mavjud/mavjud emasligi tekshirib borilmoqda. Hozirgi kunga manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlanmagan.

3.2. “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning 42-moddasida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, ishtirokchi(lar) xarid jarayonida qatnashishdan chetlashtiriladi. Jumladan, 2023-yil yakuni bo‘yicha 274 nafar xarid ishtirokchilari o‘rganib chiqildi va affillanganlik holatlari aniqlanmadi.

3.3. Monopoliyaga qarshi kurashish qonunchiligi talablarini joriy etish maqsadida Kompaniya ichki hujjatlarining loyihalarini tasdiqlashda kelishiladigan shaxslar ro'yxatiga komplayens bo'limi boshlig'i kiritildi. Shuningdek, Ichki hujjat loyihalari monopoliyaga qarshi qonunchilik talablariga rioya etilishi yuzasidan ekspertizadan o'tkazib borilmoqda.

3.4. Kompaniyaning marketing faoliyatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligi talablariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida Reklama-axborot materiallari (RAM), shuningdek saytda joylashtiriladigan axborotni kelishishda komplayens bo'limi boshlig'ini kelishiladigan shaxslar ro'yxatiga kiritildi.

4. Xodimlarning O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligi sohasida huquqiy ongini oshirish yuzasidan bajarilgan ishlar:

4.1. Komplayens bo'limi tomonidan Kompaniya xodimlari orasida monopoliyaga qarshi qonunchilik talablari yuzasidan seminar va treninglar o'tkazildi.

Jumladan, yangi tahrirdagi "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni talablarini xodimlarga yetkazish maqsadida "UMS" MCHJ faoliyatida davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida monopoliyaga qarshi kurashish qonunchiligi va lokal hujjatlar talablariga amal qilish" mavzusida o'quv-materiallari tayyorlandi va Xaridlarni boshqarish departamenti xodimlari ishtirokida seminarlar o'tkazildi.

4.2. Shuningdek, "Reklama to'g'risida"gi Qonun talablarini bilan xodimlarni tanishtirish maqsadida ham "UMS" MCHJ marketing sohasida faoliyat yuritishda reklama to'g'risidagi qonunchilik talablari hamda local hujjatlarga amal qilish" mavzusida o'quv-materiallari tayyorlangan bo'lib, shu yil dekabr oyining so'ngigiga xodimlar ishtirokida qadar seminarlar tashkil etilishi rejlashtirilgan.

5. Kompaniya faoliyatida monopoliyaga qarshi qonunchilik buzilishi xatarlarini aniqlash yuzasidan bajarilgan ishlar:

5.1. Monopoliyaga qarshi kurashish organi tomonidan yuborilgan xatlar tizimli ravishda tahlil qilinmoqda. 2023-yilning yakuniga ko'ra 48 ta xat o'rganib chiqildi. Kompaniya tomonidan qonun buzilishi holatlari aniqlanmagan. Vakolatli organga belgilangan tartibda javob xatlari yuborilgan.

5.2. Kompaniyaning raqobatni va iste'molchilarning huquq va manfaatlarini cheklovchi normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlari tahlili amalga oshirildi.

O'rganishlar natijasida qonun buzilishi holatlari aniqlanmadi.

5.3. Kompaniya tomonidan tuzilgan shartnomalarni quyidagilar yuzasidan tahlil qilindi:

- alohida xo'jalik subyektlariga ularni boshqa subyektlarga nisbatan ustuvor vaziyatga qo'yadigan asossiz imtiyozlar, afzalliklar berish, shuningdek alohida xo'jalik subyektlariga boshqa kamsituvchi yoki imtiyozli shartlarni belgilash;

- til birlashtirish va kartel kelishuvlari alomatlar mavjudligi.

O'rganishlar natijasida qonun buzilishi holatlari aniqlanmadi.

6. Raqobatga doir qonunchilik talablarini buzish xavfi yuqori bo'lgan korxonalar tarkibiy bo'linmalari aniqlangan. Ushbu bo'linmalar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish va raqobat sohasidagi qonunchilik talablarining buzilishini oldini olish yuzasidan seminarlar amalga oshirib borilmoqda.



7. Monopoliyaga qarshi organ bilan yangi loyihalar va takliflarga doir ma'lumotlarni elektron pochta, telegram va rasmiy sayt orqali almashish ishlarini muntazam ravishda amalga oshirish yuzasidan choralar ko'rilmoqda.

8. 2024-yil uchun monopoliyaga qarshi qonunchilik talablarining buzilishi xavfini kamaytirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash yuzasidan ishlar jarayonda, dekabr oyining so'ngigiga qadar "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilishi rejalashtirilgan.

**Tayyorlandi:**

**Komplayens bo'limi boshlig'i**



**Maksudova O.A.**

**Kelishildi:**

**Bosh direktorning moliya iqtisodiyot  
bo'yicha birinchi o'rinbosari**



**Saydaliyev Yo.X.**